INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

TOJIKISTONNING TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA SIYOSATI

Xamidov Farrux Xamid o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlarining eng o‘tkir va strategik ahamiyatga ega muammolardan biri ya’ni transchegaraviy suv resurslarini taqsimlash hamda ulardan samarali va adolatli foydalanish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada Tojikiston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston kabi mintaqa davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va o‘zaro siyosiy munosabatlari ko‘p jihatdan Amudaryo va Sirdaryo havzalariga bog‘liq ekani asoslab beriladi. Shu bilan birga, mintaqadagi suv resurslarining asosiy qismi shakllanadigan Tojikiston Respublikasining suv siyosatiga alohida e’tibor qaratilgan. Unda mamlakatning transchegaraviy daryolardan foydalanish bo‘yicha milliy manfaatlari, qo‘shni davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Amudaryo, gidroenergetika, Markaziy Osiyo, mintaqaviy hamkorlik, qishloq xo‘jaligi, Sarez ko‘li, Sirdaryo, suv diplomatiyasi, suv resurslari, suv siyosati, suv taqsimoti, Tojikiston, transchegaraviy suvlar, Zarafshon daryosi.

Аннотация: Данная статья посвящена одной из наиболее острых и стратегически значимых проблем государств Центральной Азии – распределению трансграничных водных ресурсов и их эффективному и справедливому использованию. В статье обосновывается, что экономическое развитие, социальная стабильность и политические отношения между такими странами региона, как Таджикистан, Кыргызстан, Узбекистан, Туркменистан и Казахстан, во многом зависят от водных бассейнов Амударьи и Сырдарьи. Вместе с тем особое внимание уделяется водной политике Республики Таджикистан, на территории которой формируется значительная часть водных ресурсов региона. Анализируются национальные интересы страны в сфере использования трансграничных рек, её двустороннее сотрудничество с соседними государствами.

Ключевые слова: Амударья, гидроэнергетика, Центральная Азия, региональное сотрудничество, сельское хозяйство, озеро Сарез, Сырдарья, водная дипломатия, водные ресурсы, водная политика, распределение водных ресурсов, Таджикистан, трансграничные воды, река Зарафшан..

Abstract: This article is devoted to one of the most pressing and strategically significant issues facing the Central Asian states — the allocation of transboundary water resources and their efficient and equitable use. It substantiates that the economic development, social stability, and political relations among the regional countries — Tajikistan, Kyrgyzstan, Uzbekistan, Turkmenistan, and Kazakhstan – largely depend on the Amu Darya and Syr Darya river basins. At the same time, particular attention is paid to the water policy of the Republic of Tajikistan, where a substantial share of the region’s water resources is formed. The article analyzes the country’s national interests in the use of transboundary rivers, its bilateral cooperation with neighboring states.

Keywords: Amu Darya, hydropower, Central Asia, regional cooperation, agriculture, Sarez Lake, Syr Darya, water diplomacy, water resources, water policy, water allocation, Tajikistan, transboundary waters, Zarafshan River.

Markaziy Osiyoda suv resurslarini taqsimlash va ulardan samarali foydalanish masalasi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning muhim omillaridan biri sifatida ancha yillardan buyon dolzarb mavzulardan biri hisoblanib kelmoqda. Mintaqa geografik va iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan suvga yuqori darajada bog‘liq bo‘lib, Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy daryolar Tojikiston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston uchun hayotiy ahamiyatga ega. Bu daryolar nafaqat qishloq xo‘jaligini sug‘orishda, balki energetika va sanoatni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Tojikiston Respublikasi esa mintaqadagi suv resurslarining asosiy qismini shakllantiruvchi davlat sifatida suv siyosati va transchegaraviy daryolardan foydalanish masalalarida markaziy ahamiyatga ega. Mazkur davlatning geografik joylashuvi va tabiiy resurslari uni Markaziy Osiyo suv ta’minoti tizimining asosiy elementiga aylantiradi. Xususan, Pomir va Tyan-Shan tog‘ tizmalaridagi baland tog‘li hududlar suv zaxiralari uchun muhim manba bo‘lib, Tojikistonga gidroenergetika sohasida katta salohiyat taqdim etadi.

Maqolada asosan Tojikistonning transchegaraviy suvlardan foydalanisha bo‘yicha qo‘shni davlatlar bilan hamkorligi tahlil qilinadi.

Tojikistonning transchegaraviy suv siyosatida **Qirg‘iziston** bilan munosabatlar markaziy o‘rin tutadi. Buning asosiy sababi ikkala davlat ham Markaziy Osiyo uchun hayotiy muhim suv arteriyalari bo‘lgan Sirdaryo va Amudaryo havzalarining yuqori oqimida joylashganidir. Bu holat ularga suv oqimining shakllanishida katta ta’sir kuchi beradi. Shu bilan birga, ular gidroenergetikani rivojlantirishda umumiy strategik manfaatlarga ega (ikkisi ham katta gidroenergetik salohiyatga ega va bundan energiya mustaqilligi hamda eksport uchun foydalanishga intiladi). Biroq, ayni shu holat ularni quyi oqimdagi davlatlar (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston) bilan munosabatlarda o‘xshash muammolar va ba’zan ziddiyatlarga duchor qiladi.

Ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy poydevori sifatida 2004 yil may oyida imzolangan «Tojikiston Respublikasi va Qirg‘iz Respublikasi o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma» xizmat qiladi [1]. Bu shartnoma keng qamrovli hamkorlik uchun asos yaratgan.

Ikki mamlakat manfaatlari kesishadigan asosiy suv obyekti – bu Sirdaryo daryosidir. Sirdaryo oqimining asosiy qismi (taxminan 70-75%) Qirg‘iziston hududida, asosan Norin daryosi orqali shakllansa-da [2], daryo oqimini mavsumiy tartibga solishda Tojikistonning Qayroqqum suv ombori («Bahri Tochik» deb ham ataladi) strategik ahamiyat kasb etadi. Bu ombor quyi oqimdagi hududlarni, jumladan O‘zbekiston va qisman Tojikistonning o‘zini suv bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, Qirg‘iziston hududida joylashgan To‘rtko‘l suv ombori ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu ombordan Tojikistonning So‘g‘d viloyati uchun hayotiy zarur bo‘lgan Katta Farg‘ona kanali, shuningdek, Ak-Tatir kanali va Ravot gidrouzeliga suv yetkazib beriladi. Aynan To‘rtko‘l suv omboridan suv olish tartibi va hajmlari masalasi uzoq yillardan beri ikki davlat o‘rtasidagi mahalliy darajadagi eng keskin nizolar va mojarolarning asosiy sabablaridan biri bo‘lib kelmoqda[3].

Oxirgi o‘n yillikda Qirg‘iziston va Tojikiston chegarasida yuz bergan 150 ga yaqin (ba’zi manbalarda undan ham ko‘p) to‘qnashuvlarning aksariyati aynan suv taqsimoti, sug‘orish inshootlaridan foydalanish yoki suv manbalariga egalik qilish yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lgan [4]. Bu mojarolarning chuqurlashuviga ikki davlat o‘rtasidagi umumiy chegaraning (taxminan 980 km) katta qismi (2023 yilgacha yarmidan ko‘pi) delimitatsiya va demarkatsiya qilinmagani salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Chegara chizig‘ining noaniqligi suv manbalari, yaylovlar va yo‘llardan foydalanish bo‘yicha doimiy bahslarga sabab bo‘lib kelgan.

Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi suv munosabatlari mintaqaviy barqarorlik uchun katta ahamiyatga ega. Chegara masalasining hal etilishi suv sohasidagi hamkorlik uchun yangi ufqlar ochishi kutilmoqda. Biroq, suv resurslaridan adolatli va samarali foydalanish, iqlim o‘zgarishi ta’sirini hisobga olish va gidroenergetika loyihalarini muvofiqlashtirish kabi masalalar hamon kun tartibida qoladi va doimiy muloqot hamda o‘zaro manfaatlarni hisobga olishni talab etadi.

Tojikiston va **Afg‘oniston** o‘rtasidagi munosabatlarda Amudaryo va uning asosiy irmog‘i bo‘lgan Panj daryolari markaziy o‘rin tutadi. Bu daryolar nafaqat muhim transchegaraviy suv manbalari, balki ikki davlat o‘rtasidagi tabiiy chegara vazifasini ham bajaradi. Bu holat suv resurslaridan foydalanish masalasini chegara xavfsizligi va suverenitet bilan chambarchas bog‘lab qo‘yadi.

Ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992 yilda o‘rnatilgan. Transchegaraviy daryolardan foydalanish bo‘yicha hamkorlikni tartibga solish maqsadida Afg‘onistonning avvalgi hukumatlari bilan ikkita asosiy hujjat imzolangan:

Birinchisi, 2010 yil 25 oktyabr kuni Qobul shahrida imzolangan Tojikiston va Afg‘oniston hukumatlari o‘rtasida “Amudaryo va Panj daryolarining suv resurslaridan foydalanish va rivojlantirish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” bo‘lib[6], mazkur hujjat bilan Amudaryo va Panj daryolarida qo‘shma kuzatuv punktlarini kelishish va belgilash, suv toshqinlari va qurg‘oqchilik vaqtida ma’lumotlar almashinuvi, birgalikda tadqiqotlar o‘tkazish, gidrologik postlarni tiklash va qurish, shuningdek, qirg‘oqlarni mustahkamlash va tabiiy ofatlar oqibatlarini kamaytirishda hamkorlik masalalari tartibga solinadi.

Ikkinchisi, 2020 yil 17 sentyabr kuni Dushanbe shahrida Tojikiston va Afg‘oniston o‘rtasida, besh yilga mo‘ljallangan **Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha Memorandum** [7] imzolandi. Mazkur memorandum o‘z ichiga iqlim o‘zgarishiga moslashish, bioxilma-xillikni saqlash, suv sifati monitoringi, qo‘shma loyihalarning ekologik bahosini o‘tkazish va Panj hamda Amudaryo havzalari ekotizimlarini boshqarish bo‘yicha tajriba almashish kabi sohalarga oladi.

Yuqoridagi kelishuvlar Afg‘onistonda 2021 yil avgust oyida hokimiyatga Islom Amirligi (Tolibon harakati) kelishidan oldin imzolangan. Hozirgi kunda ushbu hujjatlarning Afg‘oniston tomonidan qanchalik tan olinishi va amalda bajarilishi noaniqligicha qolmoqda. Tojikiston (va aksariyat dunyo davlatlari) Afg‘oniston Islom Amirligini rasman tan olmagan, bu esa hukumatlararo darajadagi hamkorlik, jumladan, avvalgi kelishuvlarni amalga oshirish jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha hamkorlik Markaziy Osiyodagi eng muhim va ko‘p qirrali munosabatlardan biridir, bu asosan uchta yirik transchegaraviy daryo – Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon havzalari doirasida amalga oshiriladi. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va iqtisodiyotining xususiyatlari uni Tojikistonning suv siyosatida eng muhim strategik sherikka aylantiradi. Hozirgi kundagi suvdan foydalanish tizimining asoslari Sovet Ittifoqi davrida shakllangan, o‘sha paytda Markaziy Osiyo yagona suv xo‘jaligi kompleksi sifatida boshqarilgan. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida Tojikistondagi Qayroqqum kabi yirik suv omborlari, Katta Farg‘ona kanali singari magistral kanallar va irrigatsiya tizimlari qurilgan bo‘lib, ular asosan quyi oqimdagi respublikalar, xususan O‘zbekistonning keng qamrovli sug‘orma dehqonchiligini suv bilan ta’minlashga mo‘ljallangan edi.

Deyarli butunlay Tojikistonda shakllanadigan Zarafshon daryosining suvi ham asosan O‘zbekiston hududida (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari) ishlatilgan va bu tartib tarixan shakllangan. Sovet Ittifoqi parchalangach, yagona suv xo‘jaligi tizimi transchegaraviy xarakterga ega bo‘ldi va bu yangi muammolarni keltirib chiqardi. 1992 yilda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan imzolangan Olmaota Bitimi mintaqaviy suv taqsimotining asosiy tamoyillarini belgilab berdi, garchi uning ijrosi va talqini bo‘yicha bahslar davom etgan bo‘lsa-da, 1991 yildan 2016 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlarida suv masalasi, ayniqsa, Tojikistonning yirik Rog‘un GESini qurish rejalari tufayli murakkablashdi.

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti davrida yuqoridagi muammolar ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Biroq, 2016 yilda O‘zbekistonda rahbariyat o‘zgargach, Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan qo‘shni davlatlar, jumladan Tojikiston bilan munosabatlarni tubdan yaxshilash siyosati boshlandi. Misol uchun, ikki davlat Zarafshon daryosida ikkita GESni (masalan, Yavon GESi loyihasi) birgalikda qurish to‘g‘risida kelishuvga erishdi,[9] bu avvallari bahsli bo‘lishi mumkin bo‘lgan resursdan

endilikda birgalikda foydalanish va investitsiya kiritishga o‘tilganini anglatadi. Qayroqqum suv ombori oqimini boshqarishda o‘zaro hamkorlik yaxshilanib, bu suv kam bo‘lgan yillarda O‘zbekistonning sug‘orish ehtiyojlari uchun Tojikiston tomonidan qo‘shimcha suv chiqarib berish imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, Tojikistondan O‘zbekistonga o‘tuvchi Shimoliy va Katta Farg‘ona kabi transchegaraviy kanallarda zamonaviy suv o‘lchash texnologiyalari o‘rnatilib, «Patar» va «Sarvak» [10] kabi yangi gidropostlarning ochilishi suv taqsimoti va hisobini yuritishda shaffoflikni oshirib, o‘zaro ishonchni mustahkamlashga va ehtimoliy nizolarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ikkala davlat ham Amudaryo va Sirdaryo havzalarini boshqarish bo‘yicha Davlatlararo Suv Xo‘jaligini Muvofiqlashtirish Komissiyasi (DSXMK) kabi mintaqaviy platformalar faoliyatida ishtirok etishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi suv munosabatlari 2016 yilgacha bo‘lgan sovuqlik davridan so‘ng sezilarli darajada ijobiy tomonga o‘zgardi va hozirda konstruktiv strategik sheriklik ruhida rivojlanmoqda. Tarixiy bog‘liqlik, o‘zaro iqtisodiy manfaatdorlik va yangi siyosiy iroda suv resurslaridan birgalikda samarali foydalanish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va ehtimoliy xatarlarni birgalikda bartaraf etish uchun qulay zamin yaratdi. Iqlim o‘zgarishi va suvga bo‘lgan talabning ortib borishi sharoitida bu hamkorlikni yanada mustahkamlash har ikki davlat va butun mintaqa uchun hayotiy ahamiyatga ega.

IQTIBOSLAR. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Межправительственные соглашения государств Центральной Азии - CAWater-Info//http://www.cawater-info.net/library/ca.htm

2. Water Conflict and Cooperation in Central Asia - Human Development Reports// https://hdr.undp.org/system/files/documents/weinthalerika.pdf

3. Н.Авазбеков, Кыргызско-таджикские пограничные споры: причины и пути решения// https://cabar.asia/ru/kyrgyzsko-tadzhikskie-pogranichnye-spory-prichiny-i-puti-resheniya

4. Д Каримов, “Компромисс президентов”// https://rg.ru/2019/07/31/glavy-kirgizii-i-tadzhikistana-obsudili-konflikt-na-granice.html

5. https://faolex.fao.org/docs/pdf/bi-215068.pdf

6. Афганистан и Таджикистан будут бороться за сохранение богатого биоразнообразия Памира и Вахана// https://news.un.org/ru/story/2020/09/1387232

7. Узбекистан и Таджикистан построят две ГЭС на реке Зарафшан. Алишер Султанов сообщил подробности// https://kun.uz/ru/95771230

8. На границе Узбекистана и Таджикистана открыли два гидропоста для контроля трансграничных вод https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/23/rivers/